O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI




# “O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

## MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







**2026-yil**
**16-oktabr**

# INGLIZ, QORAQALPOQ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARDA ZOONIMLARNING (“BO‘RI” MISOLIDA) LINGVOKOGNITIV TAHLILI

# COGNITIVE INTERPRETATION OF THE ZOONYM “WOLF” IN ENGLISH, KARAKALPAK AND UZBEK PROVERBS

*DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/ZLMY4174*

**Turdiyeva Roza Sultanmuratovna**
*Alisher Navoiy nomidagi*
*Toshkent davlat o‘zbek tili va*
*adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*
roseturdieva@gmail.com
*ORCID: 0000-0001-8298-2682*

**Annotation.***This article examines the linguocognitive features of the zoonym “wolf” in English, Karakalpak and Uzbek proverbs from a comparative perspective. Particular attention is paid to the semantic, metaphorical, conceptual and linguocultural meanings of the wolf image. The study demonstrates that the zoonym “wolf” functions as a conceptual means of representing danger, strength, aggression, courage, wildness and social behaviour. The comparative analysis reveals both universal and culture-specific aspects of the wolf concept. In Uzbek and Karakalpak proverbial discourse, the image of the wolf is closely associated with traditional pastoral life, livestock and the natural environment, whereas in English proverbial discourse it is more frequently conceptualized through the ideas of wilderness, danger, predatory behaviour and human aggression.*

**Keywords:** *zoonym, wolf, proverb, paremiology, linguocognitive analysis, concept, metaphor, linguoculture, comparative linguistics.*

Til insonning borliqni idrok etishi, uni kategoriyalarga ajratishi va tajribasini avloddan avlodga yetkazishining asosiy vositalaridan biridir. Shu sababli til birliklarini faqat nominativ yoki grammatik birlik sifatida emas, balki muayyan xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy tajribasini saqlovchi kognitiv tuzilmalar sifatida o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy munosabat natijasida tabiat obyektlari, hayvonlar, o‘simliklar va boshqa realiyalar insonning konseptual dunyosida

ikkilamchi, ya’ni metaforik va baholovchi ma’nolarga ega bo‘ladi. Tilning madaniyat bilan aloqasi natijasida shakllangan bunday birliklar xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettiradi [Mahmudov, 2017].

Maqol va matallar mazkur jarayonni o‘rganish uchun ayniqsa muhim manba hisoblanadi. Chunki maqol xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasini qisqa, obrazli va umumlashgan shaklda ifodalovchi paremiologik birlikdir. T. Mirzayev, A. Musoqulov va B. Sarimsoqovlar tuzgan “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamining kirish qismida ham maqollar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi va maishiy turmush tarzining o‘ziga xos aksi sifatida talqin qilinadi.

Zoonimlar, ya’ni hayvon nomlari ishtirokidagi maqollar esa inson xulq-atvori, xarakteri, ijtimoiy munosabatlari va axloqiy mezonlarini hayvonlarning tabiiy xususiyatlari orqali konseptuallashtirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan “bo‘ri” zoonimi alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Chunki bo‘ri obrazi turli xalqlar madaniyatida yirtqichlik, kuch, xavf, qo‘rquv, dushmanlik, mustaqillik, ayyorlik yoki yashirin tahdid kabi bir qator semantik komponentlarni shakllantiradi.

Tadqiqotda zoonimlarning mazmunini ochib berishda, avvalo, kognitiv-semantik yondashuvga tayanildi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, til birligi ortida faqat lug‘aviy ma’no emas, balki insonning tajribasi va borliq haqidagi bilimlari asosida shakllangan mental tuzilma ham mavjud bo‘ladi. Demak, “bo‘ri” so‘zining paremiologik birlik tarkibidagi mazmuni uning biologik nomi bilan chegaralanmaydi, balki xalqning ushbu hayvon haqidagi bilimlari asosida shakllangan konseptual modelni ham ifodalaydi.

Til birliklari orqali insonning madaniy tajribasi ifodalanishi haqidagi qarashlar lingvokulturologik tadqiqotlarda ham muhim o‘rin tutadi. N. Mahmudov til va madaniyat munosabatini inson tafakkuri, milliy tajriba va til birliklarining o‘zaro aloqasi asosida tushuntirish zarurligini ta’kidlaydi [Mahmudov, 2017]. Shu jihatdan zoonim komponentli maqollar milliy-madaniy konseptlarning verbalizatsiyasi sifatida qaralishi mumkin.

Tadqiqotning ikkinchi muhim metodologik asosi konseptual metafora nazariyasidir. G. Lakoff va M. Johnson metaforani faqat badiiy bezak yoki stilistik vosita sifatida emas, balki inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida talqin qiladilar [Lakoff, Johnson, 1980]. Ularning konseptual metafora nazariyasiga ko‘ra, bir konseptual soha haqidagi bilim boshqa konseptual soha orqali anglanishi mumkin. Zoonimlarda esa hayvonlar dunyosiga oid tajriba insonning ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini izohlash uchun manba

sohaga aylanadi. Z. Kövecses ham metaforik konseptuallashtirish jarayonida konkret tajribaga asoslangan obrazlar abstrakt tushunchalarni anglashga xizmat qilishini ko‘rsatadi [Kövecses, 2010].

Shu asosda mazkur tadqiqotda “hayvon → inson” konseptual ko‘chishi asosiy model sifatida olinadi. Ya’ni hayvonning tabiiy xususiyati insonning xarakteri yoki ijtimoiy xatti-harakatini ifodalash uchun ko‘chiriladi. Masalan, “bo‘ri → yirtqichlik → xavf → tahdid” modeli orqali bo‘rining biologik xususiyati insonlararo munosabatlar sohasiga ko‘chiriladi.

Maqollarning paremiologik tabiatini hisobga olish ham tadqiqot uchun muhimdir. G. L. Permyakov paremiologik birliklarning strukturaviy va semantik xususiyatlarini o‘rganishda ularning umumlashtiruvchi xarakteri, tayyor holda qo‘llanishi va ma’lum vaziyatga nisbatan xulosa yoki baho ifodalash imkoniyatiga e’tibor qaratadi [Permyakov, 1988]. Demak, maqoldagi zoonimni alohida leksema sifatida emas, balki butun paremiologik konstruksiya tarkibida tahlil qilish zarur.

V. N. Telia tomonidan ishlab chiqilgan lingvokulturologik yondashuv ham zoonimlarning madaniy semantikasini aniqlashda muhim metodologik asos bo‘la oladi. Frazeologik va turg‘un birliklarda obrazning milliy-madaniy mazmuni uning nominativ ma’nosidan kengroq ekanligi qayd etiladi [Telia, 1996]. Bu tamoyil maqollardagi zoonimlar uchun ham amal qiladi.

Shuningdek, zoonimlarning madaniy konseptlar bilan munosabatini izohlashda A. Wierzbickaning til, madaniyat va konseptlar o‘rtasidagi aloqaga bag‘ishlangan tadqiqotlari ham metodologik ahamiyatga ega [Wierzbicka, 1992]. Uning qarashlari asosida bir xil hayvon obrazi turli xalqlarda turlicha madaniy ssenariy va baholash komponentlari bilan bog‘lanishi mumkinligini ko‘rish mumkin.

**O‘zbek tilidagi “bo‘ri” zoonimining lingvokognitiv xususiyatlari**

O‘zbek maqollarida “bo‘ri” obrazi ko‘pincha xavf, yovvoyilik, ajralish, birlikning buzilishi va dushmanlik konseptlari bilan bog‘lanadi. Buning muhim sabablaridan biri o‘zbek xalqining tarixiy-maishiy hayotida chorvachilik, yaylov va yovvoyi hayvonlar bilan bog‘liq tajribaning mavjud bo‘lganidir. Biroq maqollarda bo‘rining real hayvon sifatidagi xususiyatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasvirlanmaydi; ular insonlararo munosabatlarni baholash uchun ko‘chma ma’noda ishlatiladi.

Masalan:

Ayrilganni ayiq yer,
Bo‘linganni bo‘ri yer.

Ushbu maqol “Jamoatchilik va xudbinlik” mavzusidagi maqollar qatorida keltirilgan bo‘lib, to‘plamning 8-betida qayd etilgan [Mirzayev, Musoqulov, Sarimsoqov, 2005: 8].

Mazkur maqolda “bo‘ri → xavf → tashqi tahdid” konseptual modeli yuzaga keladi. Biroq bu yerda bo‘ri oddiy yirtqich hayvon sifatida emas, balki birlikdan ajralgan yoki bo‘lingan guruhning zaiflashishiga sabab bo‘ladigan tashqi xavf timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. “Bo‘lingan” birlikning aksi sifatida “bo‘ri”ning kelishi birlikning himoya funksiyasini kuchaytiradi. Shunday qilib, maqolning chuqur kognitiv mazmuni “birlik – xavfsizlik, ajralish – xavf” qarama-qarshiligi asosida shakllanadi.

Bu holat maqollarning semantik tuzilishida zoonimning alohida emas, balki qarama-qarshi konseptlar tizimida faoliyat yuritishini ko‘rsatadi. Maqolning umumiy mazmuni ham xalqning ko‘p asrlik hayotiy kuzatuvlari va tajribasini ixcham shaklda ifodalashi bilan izohlanadi.

O‘zbek paremiologik materialida bo‘ri obrazi bilan bog‘liq yana bir muhim konseptual yo‘nalish – “bo‘ri → yovvoyilik → ijtimoiy xavf” modelidir. Bunda bo‘rining tabiiy yirtqichligi insonning salbiy xususiyatlarini izohlash uchun konseptual manba vazifasini bajaradi.

Ushbu jarayonni “Bo‘rining og‘zi yesa ham qon, yemasa ham qon” kabi maqollar misolida ham ko‘rish mumkin. Mazkur maqolda bo‘rining yirtqich sifatidagi tabiiy xususiyati insonning oldindan salbiy baholangan holatiga ko‘chiriladi. Bu yerda “bo‘ri → qon → yovuzlik → salbiy baho” konseptual zanjiri yuzaga keladi.

Shu bilan birga, bo‘ri obrazi har doim bir xil semantik yuklamaga ega emas. Ayrim kontekstlarda u qo‘rquvni yengish, xavfga qarshi turish va ehtiyotkorlik bilan bog‘liq konseptual modelni yuzaga keltiradi. Demak, zoonimning semantik qiymati uning lug‘aviy ma’nosidan ko‘ra, maqol tarkibidagi boshqa komponentlar bilan munosabatida aniqlanadi.

M. Afzalov o‘zbek xalq maqollarini yig‘ish va o‘rganish an’anasining shakllanishida katta hissa qo‘shgan olimlardan biri sifatida o‘zbek paremiologik materialining boyligini namoyon etgan [Afzalov, 1978]. Keyingi to‘plamlarda ham turli davrlarda yig‘ilgan maqollar tizimlashtirilgan. “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamining kirish qismida maqollarni to‘plash va nashr etish tarixida M.

Afzalov, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, A. Musoqulov va boshqa folklorshunoslarning hissasi alohida qayd etiladi.

**Qoraqalpoq tilidagi “bóri” zoonimining lingvokognitiv xususiyatlari**

Qoraqalpoq maqollarida “bóri” zoonimi, avvalo, chorvachilik va jamoaviy himoya bilan bog‘liq kognitiv modelni shakllantiradi. Qoraqalpoq xalqining an’anaviy xo‘jalik tajribasida chorvachilik muhim o‘rin tutgani sababli yirtqich hayvonlar, poda, qo‘riqlash va birlik bilan bog‘liq tushunchalar paremiologik birliklarda faol aks etgan.

Masalan:

Iyttiń awzı ala bolsa da,

Bóri kelgende birigedi.

Ushbu maqolning kognitiv mazmunida ichki kelishmovchilikka qaramay, tashqi xavf paydo bo‘lganda jamoaning birlashishi ifodalangan. Bu modelni “ichki farq → tashqi xavf → birlashish → himoya” tarzida ifodalash mumkin.

Mazkur model o‘zbek tilidagi “Bo‘linganni bo‘ri yer” maqoli bilan qiyoslanganda yanada aniq ko‘rinadi. Har ikki tilda ham bo‘ri tashqi xavfning konseptual timsolidir. Biroq o‘zbek maqolida asosiy urg‘u bo‘linishning oqibatiga berilsa, qoraqalpoq maqolida tashqi xavf oldida jamoaviy birlikning yuzaga kelishi oldinga chiqadi.

Qoraqalpoq folklor materiallarida “bóri” zoonimi boshqa bir qancha birliklarda ham uchraydi. Masalan:

Bóri joldasın dastıq qılmaydı.

Bu maqolda bo‘rining tabiiy yirtqichligi va o‘zaro raqobatga moyilligi insonlararo munosabatlarga ko‘chiriladi. Natijada “bo‘ri → yirtqichlik → raqobat → ishonchsizlik” konseptual modeli shakllanadi. [Qoraqalpoq folklori. Naqıl-maqallar. Nukus, 2010: 60].

Yana bir maqolda:

Padanıń awzı bir bolsa,

Bórige aldırmas

deyiladi. [Qoraqalpoq folklori. Naqıl-maqallar. Nukus, 2010: 207].

Mazkur birlikda “bo‘ri” tashqi xavf, “poda” esa jamoa konseptini ifodalaydi. “Og‘izning bir bo‘lishi” metaforik jihatdan birlik va hamjihatlikni anglatadi. Demak, konseptual model quyidagicha shakllanadi: “poda → birlik → himoya → xavfsizlik” qarama-qarshi ravishda: “bo‘ri → yirtqichlik → tahdid”.

Qoraqalpoq materialida chorvachilik va hayvonot dunyosi bilan bog‘liq maqollarning ko‘pligi ham xalqning tarixiy xo‘jalik tajribasi bilan bog‘liq.

To‘plamning mundarijasida mehnat, dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, ovchilik, savdo va boshqa hayot sohalariga oid maqollar alohida mavzular sifatida berilgan.

Shu jihatdan qoraqalpoq maqollaridagi bo‘ri konsepti faqat “yovuzlik” bilan chegaralanmaydi. U real hayotdagi chorva xavfsizligi, poda yaxlitligi, jamoaviy harakat va hushyorlik bilan bog‘langan madaniy tajribani ham o‘zida saqlaydi.

**Ingliz tilidagi “wolf” zoonimining kognitiv modeli**

Ingliz tilida “wolf” zoonimi ham asosan yirtqichlik, xavf va tahdid konseptlari bilan bog‘lanadi. Biroq ingliz tilidagi zoonimik metaforalarda bo‘rining insonlararo munosabatlarda yashirin yoki niqoblangan xavfni ifodalashi ham alohida ahamiyatga ega.

Buning yorqin misollaridan biri:

A wolf in sheep’s clothing.

Mazkur birlikda wolf xavf va yovuzlikni, sheep esa beg‘uborlik va himoyasizlikni ifodalaydi. Shunday qilib, insonning tashqi ko‘rinishi bilan ichki mohiyati o‘rtasidagi tafovut hayvonlar obrazi orqali konseptuallashtiriladi.

Bu yerda asosiy konseptual metafora:

“wolf → predator → danger” va “sheep → innocence → vulnerability” shaklida namoyon bo‘ladi.

Natijada:

“tashqi beg‘uborlik ≠ ichki xavf” qarama-qarshiligi yuzaga keladi.

Konseptual metafora nazariyasi nuqtayi nazaridan bu hodisa konkret hayvoniy tajribaning abstrakt ijtimoiy-psixologik sohaga ko‘chirilishi sifatida izohlanadi [Lakoff, Johnson, 1980; Kövecses, 2010].

Ingliz tilidagi wolf konseptining yana bir xususiyati — xavfning individual va psixologik jihatdan talqin qilinishidir. Ya’ni bo‘ri ko‘pincha muayyan shaxsning tajovuzkorligi, yashirin niyati yoki xavfli xatti-harakatini anglatadi. Shu sababli ingliz tilidagi zoonimik birliklarda “wolf → aggression, wolf → hidden threat, wolf → evil” kabi kognitiv aloqalar faol ishlaydi.

**Uch til materialining qiyosiy-kognitiv tahlili**

O‘zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi materialni qiyoslash natijasida “bo‘ri/wolf” zoonimining umumiy va milliy xususiyatlarini ajratish mumkin.

Umumiy konseptual model

Uch tilda ham bo‘ri quyidagi konseptual zanjir bilan bog‘lanadi:

“bo‘ri/wolf → yovvoyilik → yirtqichlik → xavf → tahdid → qo‘rquv → himoyalanish.”

Bu model insoniyatning hayvonot olami haqidagi universal tajribasiga asoslanadi. Bo‘rining yirtqich hayvon sifatidagi xususiyati inson tafakkurida xavf konseptini shakllantirishga xizmat qiladi.

Biroq ushbu umumiy modelning madaniy “to‘ldirilishi” turlicha.

| Til | Zoonim | Asosiy konsept | Kognitiv model | Milliy-madaniy urg‘u |
|---|---|---|---|---|
| **O‘zbek** | bo‘ri | xavf, dushmanlik | bo‘ri → xavf → dushman | ijtimoiy-axloqiy baholash |
| **Qoraqalpoq** | bóri | yirtqichlik, chorvaga xavf | bóri → xavf → poda → birlik | chorvachilik va jamoaviy himoya |
| **Ingliz** | wolf | threat, aggression | wolf → predator → danger | individual va psixologik xavf |

O‘zbek tilida “bo‘ri” ko‘pincha ijtimoiy-axloqiy baholash vositasiga aylanadi. “Bo‘linganni bo‘ri yer” maqolida u jamoaviy birlikning zarurligini ifodalovchi antikonsept sifatida qatnashadi [Mirzayev, Musoqulov, Sarimsoqov, 2005: 8].

Qoraqalpoq tilida esa bo‘ri obrazi real chorvachilik tajribasi bilan yanada bevosita bog‘langan. “Padanıń awzı bir bolsa, Bórige aldırmas” maqolida tashqi xavfga qarshi jamoaviy birlik konsepti markaziy o‘rinni egallaydi.

Ingliz tilida esa bo‘ri obrazi ko‘proq insonning yashirin yoki ochiq tajovuzkorligi va xavfli tabiatini anglatadi. “A wolf in sheep’s clothing” birlikda tashqi shakl va ichki mohiyatning qarama-qarshiligi asosiy semantik mexanizm hisoblanadi.

**Xulosa**

O‘zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi zoonim komponentli maqollarni “bo‘ri” zoonimi misolida lingvokognitiv jihatdan tahlil qilish mazkur hayvon nomining uch tilda ham oddiy nominativ birlikdan kengroq semantik imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. “Bo‘ri/wolf” obrazi hayvonot dunyosiga oid konkret bilimlarni insonning ijtimoiy, axloqiy va psixologik tajribasi bilan bog‘lovchi konseptual vosita sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Uch tildagi material uchun umumiy bo‘lgan konseptual asos “bo‘ri → yirtqichlik → xavf → tahdid” zanjiridan iborat. Bu universal kognitiv asos bo‘lsa-

da, uning keyingi semantik rivoji har bir xalqning tarixiy va madaniy tajribasi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, zoonimlarning lingvokognitiv tahlili til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berishga imkon beradi. Zoonim komponentli maqollar milliy dunyoqarashning ixcham, obrazli va barqaror verbal modeli bo‘lib, ularda xalqning tabiatni kuzatishi, xo‘jalik tajribasi, ijtimoiy munosabatlari, axloqiy qarashlari va inson xarakteriga bergan bahosi mujassamlashadi.

Mazkur natijalar zoonimlarni qiyosiy o‘rganishda faqat lug‘aviy moslikni emas, balki konseptual xarita, metaforik mapping, kognitiv model, lingvomadaniy konnotatsiya va paremiologik funksiyani ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

## ADABIYOTLAR

1. Afzalov M. O‘zbek xalq maqollari haqida. – Toshkent, 1978.

2. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2010.

3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.

4. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent, 2017.

5. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005.

6. Permyakov G. L. Osnovy strukturnoy paremiologii. – Moskva: Nauka, 1988.

7. Qoraqalpoq folklori. Nақıl-maqallar. – Nukus, 2010.

8. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent, 1992.

9. Telia V. N. Russkaya frazeologiya: Semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekty. – Moskva, 1996.

10. Wierzbicka A. Semantics, Culture and Cognition. – New York: Oxford University Press, 1992.

11. The Oxford Dictionary of English Proverbs. – Oxford: Oxford University Press.

## MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| **KIRISH SO‘ZI** | | |
| **Sirojiddinov Sh.S.** | O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati | **6** |
| **I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI** | | |
| **Xolmanova Z.** | O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni | **9** |
| **Abdushukurov B.** | Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi | **16** |
| **Xudoyberdiyev J.** | Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari | **30** |
| **Abdurahmanova M.** | Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda | **45** |
| **Xolmurodova M.** | “Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar | **51** |
| **O‘razova I.** | Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida) | **56** |
| **Maxkamova D.** | O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari | **60** |

| | | |
|---|---|---|
| | terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi | |
| **Oripova M.** | Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi | **66** |
| **Muratova N.** | Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari | **72** |
| **Abdullayeva G.** | Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili | **78** |
| **Xayrullayeva R.** | Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi | **86** |
| **Jumaniyozova Ch.** | Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi | **90** |
| **Abduvaliyeva K.** | “Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili | **95** |
| **Mullaboyeva Sh.** | O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi | **107** |
| **Mamadoliyeva M.** | Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida) | **115** |
| **Mamarasulova M.** | O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari | **130** |
| **Siddiqova N.** | O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi, | **132** |

| | | |
|---|---|---|
| | variantlanishi va lingvopoetik vazifalari | |
| **Yusupova A.** | Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari | **144** |
| **O‘ralova N.** | O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni | **150** |
| **Maxmudova M.** | Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar | **158** |
| **Nurmatova S.** | O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari | **168** |
| **Keldiyorova Z.** | O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi | **174** |
| **Aliqulova Z.** | Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari | **178** |
| **Jurayeva Sh.** | Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi | **183** |
| **Karimova U.** | Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili | **188** |
| **II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI** | | |
| **Shamsiyeva M.** | Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari | **194** |

| | | |
|---|---|---|
| **Jo‘rayeva M.** | Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati | **201** |
| **III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI** | | |
| **Ashirboyev S.** | Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi | **205** |
| **Farhad Rahimi** | Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine<br>On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk | **210** |
| **Xakimova M.** | O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari | **232** |
| **Abbozov O.** | So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari | **238** |
| **Komilova G.** | O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi | **245** |
| **Xomidova M.** | Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari | **253** |
| **Həsənzadə Səmra** | Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda) | **261** |
| **Davronova Z.** | Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida) | **272** |

| | | |
|---|---|---|
| **Tursinbayeva Sh.** | Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari | **276** |
| **Bekmuradova I.** | O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi | **283** |
| **Imomova I.** | Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari | **291** |
| **Turgunboeva D.** | Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor | **297** |
| **Amrullayeva M.** | O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari | **305** |
| **Abdug‘afurova A.** | Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida | **312** |
| **Muzaffarova Z.** | Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari | **322** |
| **Jumayeva M.** | Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili | **327** |
| **Xolmo‘minova H.** | Frazemalarning lingvomadaniy tahlili | **333** |
| **IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA** | | |

| | | |
|---|---|---|
| **Xusanova N.** | Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish | **337** |
| **Mamirova X.** | Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri | **344** |
| **Arolova N.** | Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik | **351** |
| **Mirnosirova D.** | Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini | **356** |
| **Nurboboyeva R.** | Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni | **363** |
| **Keldiboyeva M.** | O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli | **369** |
| **V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA** | | |
| **Mustafa Said Arslan** | Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler | **378** |
| **Kalanova D.** | O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi | **389** |

| | | |
|---|---|---|
| **Muhammadiyeva D.** | Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari | **400** |
| **Abbasova Ş.** | Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri | **411** |
| **Qarshiyev K.** | Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida) | **418** |
| **Rahimova Z.** | Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati | **428** |
| **Bozorova S.** | Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir | **433** |
| **Axmedova N.** | O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi | **442** |
| **Davlatova R.** | Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar | **448** |
| **Turdiyeva R.** | Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida) | **462** |
| **Ataniyazova S.** | O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari | **466** |
| **Sayfiyeva K.** | O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson | **472** |

| | | |
|---|---|---|
| | konseptining kognitiv metaforik modellari | |
| **Tillayeva O.** | O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni | **485** |
| **Musurmankova Sh.,** **Abdullayeva D.** | “Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari | **495** |
| **Abdullayeva M.** | Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari | **502** |
| **VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI** | | |
| **Abjalova M.** | O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati | **513** |
| **Elova D.** | O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari | **524** |
| **Kasimova Z.** | O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari | **534** |
| **Nurullayeva O.** | Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari | **542** |
| **Musulmonova K.** | Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari | **550** |

| | | |
|---|---|---|
| **Umarova Sh.** | Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari | **556** |
| **Akramdjanova M.** | Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni | **564** |
| **Buronova R.** | Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi | **570** |
| **Shodmonaliyeva Y.** | Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari | **576** |
| **Rayimjonova M.** | Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari | **591** |
| **VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR** | | |
| **Mirzəli Məleykə** | Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında) | **595** |
| **Iskandarova G.** | O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish | **603** |
| **VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI** | | |
| **Темирова Б.,**<br>**Темирова М.** | Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу | **610** |

| | | |
|---|---|---|
| **Nazarov Q.** | O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari | **620** |
| **IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI** | | |
| **Berdak Yusuf** | O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari | **626** |
| **Qurbonova M.** | Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini | **632** |
| **Umurzoqova M.** | Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari | **640** |
| **Mirzaali Malika** | O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı | **646** |
| **Məmmədova A.** | Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi | **661** |
| **Tuxtasinova M.** | L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili | **670** |
| **Abdullayeva S.** | So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları | **681** |
| **Xasanova G.** | Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari | **688** |

| | | |
|---|---|---|
| **Rajabov N.** | O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti | **695** |
| **Mirzayeva G.** | O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari | **699** |
| **Arislanova M.** | She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida) | **706** |
| **Muhammadiyeva M.** | “Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili | **717** |
| **Abdullayev G‘.** | Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari | **722** |
| **Tursunova S.** | Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari | **726** |
| **Turobova N.** | Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari | **737** |
| **Utegenova O‘.** | O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi | **744** |
| **Komilova G.** | Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari | **749** |
| **Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.** | O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi | **759** |

| | | |
|---|---|---|
| **Axmedova M.** | Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar | **768** |
| **Komilova Sh.** | Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar | **774** |
| **Suyunova D.** | “Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil | **780** |
| **Maqsudaliyeva Y.** | Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot | **786** |
| **Abdurasulova D.** | O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi | **792** |
| **Majidova M.** | Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi | **797** |
| **Abdullayeva I.** | Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili | **802** |
| **X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI** | | |
| **Saydaliyeva M.** | Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida | **809** |
| **Otaxonova S.** | Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari | **813** |